

**XX ASR BOSHLARIDAGI PUBLITSISTIK MATNLARDA
JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTINING AKS ETISHI**

Robiya Vaxobjonova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ishda XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayoti publitsistik matnlar asosida sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilingan. Publitsistik matnlar orqali tilning ijtimoiy vazifasi, kodlar almashinuvi, diniy va siyosiy diskursning uyg'unlashuvi, ijtimoiy ongning shakllantirishdagi roli ko'rsatiladi. Mualliflar tomonidan qo'llangan leksik, stilistik va metaforik vositalar jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, madaniy qadriyatlar, ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda siyosiy qarashlarni yoritishda muhim omil bo'lgani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari XX asr boshlaridagi o'zbek publitsistik matnlarining nafaqat tarixiy, balki sotsiolingvistik ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Publitsistika, V.Labov, P. Trudgill, sotsiolingvistika, jadidchilik, til siyosati, ijtimoiy ong, kodlar almashinuvi, milliy uyg'onish, mustamlakachilik, ijtimoiy islohotlar, publitsistik diskurs. diniy va siyosiy terminlar

**REFLECTION OF THE SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY
IN EARLY 20TH-CENTURY JOURNALISTIC TEXTS**

Robiya Vakhobjonova

Doctoral Researcher, Namangan State University

Abstract. This article analyzes the socio-political life of Turkestan society in the early twentieth century from a sociolinguistic perspective based on journalistic texts. Through journalistic materials, the social function of language, code-switching, the interaction of religious and political discourse, and the role of language in shaping social consciousness are examined. It is substantiated that the lexical, stylistic, and metaphorical devices used by authors played an important role in reflecting social stratification, cultural values, enlightenment ideas, and political views within society. The research findings demonstrate not only the historical but also the sociolinguistic significance of early twentieth-century Uzbek journalistic texts.

Keywords. Journalism, W.Labov, P.Trudgill, sociolinguistics, Jadidism, language policy, social consciousness, code-switching, national awakening, colonialism, social reforms, journalistic discourse, religious and political terms.

XX asrning dastlabki o'n yilliklari Turkiston o'lkasi tarixida murakkab ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Mazkur davr, bir tomondan, Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosatining keskin ta'siri ostida kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ziyolilar tashabbusi bilan shakllangan milliy uyg'onish va islohot harakatlarining faollashuvi bilan ajralib turadi. Mustamlaka boshqaruvi mahalliy aholi siyosiy huquqlarini sezilarli darajada cheklagan, iqtisodiy resurslar esa asosan markaz manfaatlariga yo'naltirilgan edi.

Bu davr siyosiy maydonida jadid ziyolilarining faol ishtiroki kuzatildi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Xoji Muin, Ashurali Zohiriy, Abdulla Avloniy kabi ma'rifatparvarlar yangi usul maktablarini tashkil etish, o'zbek tilining ijtimoiy mavqeini mustahkamlash va milliy matbuotni rivojlantirish orqali xalqni uyg'otish hamda milliy o'zlikni shakllantirish yo'lida sa'y-harakat olib bordilar. O'sha davr gazetalarida maorif islohotlari, ayollar huquqlari, til siyosati, milliy mustaqillik masalalari

muntazam yoritildi. Birinchi jahon urushi (1914–1918) va 1917 yilgi Fevral hamda Oktyabr inqiloblari mintaqadagi siyosiy jarayonlarni tubdan o‘zgartirdi. Fevral inqilobi Turkistonda siyosiy faollikning ortishiga sabab bo‘ldi, biroq Oktyabr inqilobi natijasida hudud bosqichma-bosqich Sovet hokimiyati nazoratiga o‘ta boshladi. Bu jarayonda milliy ziyolilar bilan bolshevik kuchlar o‘rtasida mafkuraviy ziddiyatlar yuzaga keldi.

Ushbu davr publitsistik matnlari orqali ijtimoiy adolatsizlik, mustamlakachilik, jaholat va islohot g‘oyalari keng yoritildi. Jadid publitsistlar bu borada muhim rol o‘ynadi. “Xurshid”, “Tujjor”, “Turkiston viloyati gazetasi”, hatto Orengburgdagi “Vaqt” gazetasi hamda Ufadagi “Sho‘ro” jurnalida faol ishtirok etib kelgan millat jonkuyari Mahmudxo‘ja Behbudiy huddi ular kabi otashnafas, vatanparvarlar Turkiston uchun ko‘plab kerakligini his qilgandi. Oqibatda, o‘zi bosh bo‘lib avval “Samarqand” gazetasi, so‘ng esa “Oyina” jurnalini tashkil qildi. Zero, adib o‘zining “Sayohat xotiralari” da ham turkman qardoshlarining “nimvahshiy holatda” hamon xanjar taqib yurishlarini afsus bilan ta’kidlab, *“ular xanjar o‘rniga qalam tutush zamoni kelgonini bilmaydurlar”* degani bejiz emas. Millatni ehtiyojini qondiruvchi yagona vosita, bu – matbuot edi. “Oyina ana shunday ehtiyoj tufayli dunyo yuzini ko‘rdi. Jurnalning har bir soni man shunday so‘zlar bilan ochiladi; *“MILLAT”i islomiyaning saodati va islohi musulmonlarning madaniyati va fununi zamoniyadin naflanmoqlarina xodimdur*”¹. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Oyna” jurnalida chop etgan maqolalarida Turkiston musulmonlarining orqada qolish sabablarini chuqur tahlil qiladi.

Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotida aks etgan hodisalarni sotsiologik aspektida quyidagi guruhlariga ajratgan holda tadqiq etdik:

1. Siyosiy tuzum va boshqaruv;
2. Milliy uyg‘onish va jadidchilik harakati;

¹ Nishonova G. “O‘zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida “Oyina” jurnalining o‘rni va ahamiyati. Fil.fan.nomzodi diss.Toshkent, 2008. 13-14-betlar.

3. Islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlar;
4. Ijtimoiy hayot va undagi qarama-qarshiliklar

1. **Siyosiy tuzum va boshqaruv.** XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan ijtimoiy-siyosiy manzara murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan ajralib turadi. Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosati natijasida o'lkada markaziy hokimiyatga bo'ysunuvchi boshqaruv tizimi joriy etilib, bu jarayon mahalliy aholi hayotining barcha sohalariga, jumladan, til va madaniyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Rasmiy boshqaruv organlarida rus tili asosiy aloqa va hujjat yuritish vositasiga aylangan bo'lsa, o'zbek tili asosan og'zaki muloqot va milliy matbuot doirasida qo'llanilgan.

*“Ulug' Turkiston parcha-parcha bo'lib, rus qozoqlari oyog'i ostida ezilgandan keyin ham, biz burungi ahvolimizga davomat qildik. Kelasi kunlar uchun hech bir hozirlik ko'rmaduk. Bu hol bilan ketabersak, bir kun dunyo yuzidan **mahv va munkariz** (butunlay yo'q bo'lib ketmoq) bo'lurmiz. Shuning uchun fursat o'tkarmasdan ilm va ma'rifatga yetishmog'imiz kerak», deb oramizdan chiqib bizga nasihat bergan mutafakkirlarimizni yana Buxoro amirining, Buxoro ulamosining ish va so'zlarini o'zimizga dalil qilib, shariat ismindan jonimiz boricha ilm va maorifga qarshi turduk”².* Bu holat xalqning ma'naviy zaifligi va siyosiy hushyorlik yetishmasligi oqibatida millatning zaiflashuviga sabab bo'ldi. Shundan keyingi davrlarda ham ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda millatning o'z taqdirini belgilashdagi loqaydligi kuchayib bordi.

Demak, Matnlarda siyosiy terminlar va islomiy-diniy tushunchalar yonma-yon keladi: masalan, *muxtoriyat, istiqlol, shuro, millat, maorif,*

² Xoji Muin. “Yoshlar!Yurtning umidi yolg'uz sizgadir” maqolasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1920-yil, 15-fevral.

hurriyat, kabi terminlari bilan bir qatorda *shariat*, *gunoh* kabi diniy leksik birliklar qo‘llangan.

Tilning ijtimoiy aks ettirish funksiyasi aynan shu joyda yaqqol ko‘rinadi: xalq turli kodlar orqali siyosiy voqelikni tushungan. Mualliflar ba‘zan diniy uslubdagi koddan (*mahv va munkar bo‘lurmiz, shariat, gunoh*) foydalanib xalq ruhiyatiga murojaat qilsa, ba‘zan esa siyosiy kodlardan (*muxtoriyat, istiqlol, xalqaro, pro‘gramma*) foydalanib, o‘quvchini siyosiy jarayonlarga jalb etadi. Mualliflar o‘z fikrlarini yanada ta’sirchanligini oshirish maqsadida frazema (iboralardan), metaforalardan o‘rinli qo‘llashgan. Masalan, yuqoridagi matnlarda keltirilgan: “*oyog‘i ostida ezilgandan keyin*” iborasi xalqning siyosiy va ijtimoiy jihatdan kuchsizligini, mustamlaka ostidagi ahvolini ifodalaydi. Bu metafora orqali yerlik xalqning eng quyi pog‘onada turishi til vositasida ko‘rsatiladi. “*Quruq so‘zlari qog‘oz ustidagina qoldi*” esa siyosiy hokimiyatning ikkiyuzlamachiligini, yuritilayotgan siyosat va uning ijrosi o‘rtasidagi tafovutni fosh etadi. Bu yerda tilning targ‘ibot-tashviqot va fosh qilish vazifasi ko‘zga tashlanadi. Birgina “*ezilmoq*” leksemasi xalqning siyosiy-huquqiy jihatidan, qolaversa, jismoniy va ruhiy ezilishini ham yoritib beradi. “*Quruq so‘z*” birligi esa mustabid tuzum siyosatining kinoya bilan ifodalanishidir. Bu kodlar almashinuvi ikki qatlamli auditoriyani ko‘zda tutadi: diniy-oddiy xalq va siyosiy-ziyoli qatlam. Shu yo‘l bilan mualliflar tilni ijtimoiy ko‘prik sifatida ishlatganini kuzatamiz.

Demak, mazkur matnlar sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilganda, ularda turli ijtimoiy qatlamlarning tilga munosabati va kodlar almashinuvi jarayoni yaqqol namoyon bo‘ladi. Diniy terminologiya xalq ruhiyatini ishonitirishda ishlatilgan bo‘lsa, ruscha-siyosiy o‘zlashmalar milliy-siyosiy diskursga yangi tushunchalarni olib kirgan.

2. **Milliy uygʻonish va jadidchilik harakati.** XX asr boshlarida Turkiston jamiyati ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy-maʼrifiy hayotida keskin burilishlar yuz berdi. Jadidchilik nafaqat yangi maktablar ochish va maʼrifat targʻiboti, balki ijtimoiy-siyosiy masalalarda xalqni faollikka chorlash, millatning huquqiy ongini shakllantirish, milliy birlik va hamjihatlikni mustahkamlash kabi vazifalarni ham oʻz zimmasiga oldi. Publitsistik matnlarda esa bu gʻoyalar oʻzining yaqqol ifodasini topib, millatni yangicha tafakkur va taraqqiyot sari undovchi kuch sifatida namoyon boʻldi. Chunonchi, *“Biz Turkiston faqir xalqi necha yillar Rusiyaning zolim va mustabid chorlarining qoʻli ostida asir boʻlub, hech bir jihatdan oʻz ahvolimizni isloh eta olmadik. Eski hukumatning birinchi masadi ham oʻz qoʻl ostidagi gʻayri rus millatini jaholat va odati mazarrat ostida ezdurub oxiri ruslashdirmoq edi. endi anday hukumat bizning boshimizda yoʻq. hozirda hokimiyat faqirxalqning oʻz qoʻlidadir. Ushbu vaqtda Turkiston faqir xalqi oʻzining ilmiy va ijtimoiy hollarini na tariqa isloh va taraqqiy etdirmakchi boʻlsa, ixtiyor oʻzindadir”*³. Matn xalqni uygʻotish va milliy ongni shakllantirish vazifasini bajaradi. Bu sotsiologvistikaning tilning ijtimoiy vazifalari haqidagi asosiy tamoyiliga mos keladi.

“Biz Turkiston faqir xalqi” – jamiyat holatini aks ettiruvchi birlik. Muallif oʻzini “biz” olmoshini qoʻllash orqali xalqqa qoʻshadi. Bu ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. Til bu yerda chorlovchi kuch: xalqni harakatga, oʻzini isloh qilishga chaqiradi. Matnda ishlatilgan soʻzlar faqat semantik maʼno emas, balki ijtimoiy konnotativ maʼnolarga ham ega: *“Faqir xalq”* – iqtisodiy maʼnodan tashqari, ilmiy-maʼrifiy qashshoqlikni bildiradi. *“Asir boʻlib”* – siyosiy qaramlik, mustamlakachilik konnotatsiyasi. *“Jaholat va odati mazarrat ostida”* – xalqning maʼnaviy tanazzulini koʻrsatadigan metaforik birlik. *“Oʻz*

³ Xoji Muin. “Toʻy va aza marosimi haqida” maqolasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1919-yil, 22-mart.

qo'lida ixtiyor” – erkinlik va mustaqillik g'oyasini targ'ib qiluvchi ijobiy yashirin ma'nodir. “

*“Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yahudiylar va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu muxtoriyatning amalga kelishiga sa'y va ehtimom etmoqimiz lozimdur*⁴. Matn XX asr boshidagi Turkiston xalqlarining siyosiy uyg'onishi davriga mansub bo'lib, unda muxtoriyat va birlik g'oyalari ilgari surilgan. Mustamlakachilik sharoitida yashayotgan xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilashi lozimligi ta'kidlangan. Muallif jamiyatdagi barcha millat va din vakillarini shu g'oya atrofida birlashtirishga chaqiradi. Matn tilida eski adabiy o'zbek (chig'atoy) tili bilan zamonaviy publitsistik til aralashib kelgan. Bu kod aralashuvi matnning o'tish davri mahsuli ekanini ko'rsatadi.

Demak, matnda yuqori ilmiy-publitsistik leksika va xalqona so'zlar uyg'unlashib, keng ijtimoiy qatlamga murojaat qilish imkonini yaratgan. “-dur” qo'shimchasi (lozimdur, qilolmaydur) – eski adabiy til qolipi, qat'iy hukm ifodalaydi.

“Chirog'larim! Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe bo'lub, yutulub, hatto, tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak, uyatdur, ahmoqliqdur. Turk tomurig'a bolta urmoqlikdur”⁵.

Matn XX asr boshlarida yozilgan bo'lib, unda muallif boshqa xalqlarning — serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar — milliy birdamlik orqali mustaqillikka intilayotganini misol sifatida keltiradi.

⁴ Mahmudxo'ja Behbudiy. “Qozoq qardoshlarimizga ochiq xat” maqolasi. “Xurriyat” gazetasi, 1918-yil, 26-yanvar.

⁵ Mahmudxo'ja Behbudiy. Qozoq qardoshlarimizg'a ochiq xat. “Xurriyat” gazetasi, 1918-yil, 26-yanvar.

Matnda *“hatto tilini yo‘qotgan o‘z jinsdoshlari”* degan ibora til va milliy ong o‘rtasidagi mustahkam aloqani ko‘rsatadi. Muallif xalq birlashsa, tilini qayta tiklashi va ijtimoiy kuchga aylanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Demak, til bu yerda faqat aloqa vositasi emas, balki millatning eng muhim ramzi sifatida talqin etilgan.

“Birlashmoq’a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar” kabi jumlar boshqa xalqlar birlashib kuch topayotgani, Turkiston xalqi ham bundan ibrat olishi lozimligini anglatadi. Muallifning asosiy strategiyasi — o‘quvchida *“biz ham shunday qilishimiz kerak”* degan ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otishdir. Matnda boshqa millatlarning tajribasi misol qilib keltiriladi. *“Uyatdur, almoqliq‘idur”* kabi ifodalar o‘quvchini hissiy jihatdan ta’sirlantiradi. *“Turk tomuriga bolta urmoqlikdur”* iborasi xalqning birdamlikdan ayrilishi — tanani hayot tomiridan uzishga tengligi sifatida ko‘rsatiladi.

Mazkur matn sotsiolingvistik jihatdan Turkiston xalqi oldida turgan milliy uyg‘onish, birdamlik va tilni asrab qolish masalalarini ko‘taradi. Unda til — millatning mavjudligini, birdamlik esa siyosiy kuch manbai sifatida talqin qilingan. Matn publitsistik uslubda yozilib, hissiy va ta’sirchan ifodalar orqali xalqni birlashishga chorlaydi.

3. Islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar. XX asr boshlarida Turkiston hududida ro‘y bergan islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy hayotida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur davr millatning tafakkurida uyg‘onish, yangicha qarashlar shakllanishi, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining jadallashuvi bilan xarakterlanadi. Islohotlarning asosiy maqsadi millatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-ma’rifat, taraqqiyot va erkinlik g‘oyalarini keng yoyishdan iborat edi. Shu bois, jadidlar tomonidan ochilgan yangi usul maktablari, nashr etilgan gazeta va jurnallar, publitsistik matnlar orqali ilg‘or qarashlar targ‘ib qilindi. Shu orqali nafaqat tarixiy voqelik, balki uning til va jamiyat taraqqiyotiga ta’siri ham yoritiladi. Chunonchi, *“Muhtaram musulmonlar!*

*Hozirgi qimmatlilik va oziqsizlik shunchalik qo‘rqinçlik darajaga bordiki, ko‘p oilalar, faqir va bechoralar pulga ham oziqtotolmasdan, ko‘cha-ko‘cha sargardon bo‘lib, necha kunlargacha och turmoqqa majburiyat ko‘rurlar. Hozirda davom etib turgon dahshatlik urush, bu yiligi suvsizlik va choriqda bololari och holin minba‘d yana qo‘rqinçliroq darajaga olib boradigonga o‘xshab ko‘rinadur. Turkiston musulmonlariniñ syezdi mana shular holini e‘tiborga olinmak orasida bo‘lub turgon ba‘zil bid‘at va isrofot ishlariñi, chunonchi, to‘y, ma‘raka, ğal, basm, lochin, qozoq orasidagi uloq, poyga va janoza kuni bo‘iladigon isrofotini bilkulla barham bermoqqa qaror berdi’*⁶. Ushbu matnni sotsiolingvistik jihatdan tahliliga to‘xtalamiz. Munavvar qori Abdurashidxonovning “Shu‘royi Islom” qarornomasidan olingan ushbu parcha XX asr boshidagi o‘zbek jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolini til orqali aniq aks ettiradi. Matnning asosiy sotsiolingvistik qiymati uning ijtimoiy muammolarni ochib berish va jamiyatni islohotlarga da‘vat qilish funksiyasida namoyon bo‘ladi.

Matn “*Muhtaram musulmonlar!*” degan murojaat bilan boshlanib, til birligi ijtimoiy birdamlikni kuchaytiruvchi, chorlovchi vazifasini bajaradi. Demak, murojaatning o‘zidayoq ko‘rinadiki, maqola barcha musulmonlarga qaratilgan. Yanada chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davrda jamiyatda musulmonlardan tashqari boshqa din vakillari ham mavjudligi, lekin bu maqola faqatgina musulmonlarga tegishli ekanligini anglaymiz. Matnda “*qimmatlilik, oziqsizlik, urush, suvsizlik, isrofot, faqir, bechoralar, sargardon, daxshatliq urush, chogirdka balolari, bid‘at, isrofot*” kabi so‘zlar ishlatilgan bo‘lib, ular davrning asosiy ijtimoiy-siyosiy muammolarini ifodalaydi. Bu leksika publitsistik nutqning tahliliy vazifasini ta‘minlaydi. Ya‘ni yuqoridagi birliklardan ko‘rinadiki, davr ijtimoiy turmushi og‘ir ahvolda, o‘zgarishlarga muhtoj. Shuning uchun “*to‘y, ma‘raka, gap, bazm, yalochi, qozoqlar orasidagi uloq, poyga, janoza kuni bo‘ladurg‘on isrofot*” larni

⁶ M.Abdurashidxonov. “Sho‘royi islom” qarornomasi” nomli maqolasi. “Najot” gazetasi, 1917-yil,27-aprel.

tugatmoq zarur edi. Ushbu leksik birliklar davrning bosh masalalaridan hisoblangan to'y va ma'rakalarni isloh qilish payti kelganligini ko'rsatadi.

Matnda ushbu birliklar davrning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu so'zlar marosim, urf-odat va xalq hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali jamiyatdagi an'anaviy urf-odatlar tilga olingan. Shu bilan birga, "isrofot" termini diniy-axloqiy baho yuklab, ijtimoiy muammoga e'tibor qaratadi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, bu leksik birliklar: davr jamiyatining iqtisodiy qiyinchiliklari fonida marosimlarni isloh qilish zaruratini ko'rsatadi. til orqali ijtimoiy yangilanish g'oyalarini ifodalaydi. Demak, matndagi leksik birliklar o'z davrida tilning jamiyatdagi madaniy hayotini tartibga solish va axloqiy me'yorlarni mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilganini ko'rsatadi. "...shunchalik qo'rqinchlik darajaga bordiki...", "yana qo'rqinchliroq darajaga olib boradigonga o'xshab ko'rinadur", "ko'chaba-ko'cha sargardon", davom etib turg'on daxshatliq urush" sintaktik birliklari publitsistik uslubning emotsional va ta'sirchan ohangini kuchaytiradi. Bu iboralar jamiyatning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tasvirlash bilan birga, muallif pozitsiyasi (ijtimoiy maqomi) oddiy shaxs emas, jamiyatga ta'sir o'tkazuvchi ma'rifatparvar va diniy-siyosiy jihatdan yetakchi sanaldi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan, bunday ifodalar: davrning ijtimoiy muammolarini til orqali yoritadi, publitsistik nutqning ogohlik va da'vat funksiyasini kuchaytiradi, tilning emotsional-ekspressiv birliklari orqali ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatadi. "...musulmonlar, bid'at, janoza" kabi diniy terminlar ijtimoiy islohotlarni diniy asosda tilining ideologik vazifasi amalga oshirgan. Matn faqatgina muammolarni tasvirlamaydi, balki yechim ham taklif qiladi: "isrofotini bilkulliya barham bermoqg'a qaror berdi".

Mazkur parcha sotsiolingvistik jihatdan: tilning ijtimoiy muammolarni ifodalash va hal etishga xizmat qilishi, publitsistik uslubning emotsional va normativ imkoniyatlari, davrga xos ijtimoiy-siyosiy leksika va diniy-axloqiy

terminlar, arxaik grammatik shakllar orqali davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Shunday qilib, bu matn XX asr boshidagi o'zbek publitsistikasida tilning ijtimoiy-funksional vazifasini yorqin ifodalovchi sotsiolingvistik manba hisoblanadi.

“Mana, biz Turkiston xalqi ham ilmssizlig‘imiz sababli turli marosim va odatlar yuki ostida ezilib, muning uchun ahloqiy va moliy jihatdan g‘oyat ko‘p zararlar ko‘rmak-da bo‘lg‘on bir millatmiz. Bizlarni o‘ziga asir etib olg‘on urflardan eng ko‘b zararli va yomonrog‘i xatna, hikohto‘ylari bilan aza marosimidir. Bizning xalq “mol va jon ketsa ketsun, obro‘i ketmasin” deb xatna yoki nikoh va aza marosimini o‘rung‘a keturmak uchun qo‘llarida bor narsalarini 1-2 kunda barbod etadilar, qarzdor bo‘larlar”⁷. Matnning sotsiolingvistik tahliliga to‘xtalamiz.

Ushbu matn Turkiston xalqi hayotida mavjud bo‘lgan odatlar, marosimlar va ularning jamiyatga ta’sirini aks ettirgan. Matnda xalqning “ilmsizligi” asosiy muammo sifatida ko‘rsatiladi va bu sababli turli marosimlarning og‘ir yuk bo‘lib qolayotgani ta’kidlanadi. Demak, muallif zamonaviy islohotchi jadidlar singari xalqning ijtimoiy hayotini ilm va ma’rifat asosida isloh qilish zarurligini ilgari surmoqda.

Matnda ishlatilgan *“mol va jon ketsa ketsun, obro‘ ketmasin”* kabi iboralar xalq ongidagi qadriyatlarni ochib beradi. Bu xalq orasida ijtimoiy mavqe va obro‘ni moddiy boylikdan ham ustun qo‘yish an’anasi mavjudligini ko‘rsatadi. Bu qarash marosimlarning (to‘y, xatna, aza) jamiyatda shunchaki diniy yoki oilaviy vazifa emas, balki ijtimoiy maqomni namoyish qilish vositasi sifatida shakllanganidan dalolat beradi. Xatna, nikoh va aza marosimlari bu yerda eng ko‘p zararli va yomonroq urf sifatida tanqid qilinmoqda. Bu tilda qo‘llangan baholovchi sifatlar (*“zararli”, “yomonroq”*) xalq urf-odatlariga tanqidiy munosabatni bildiradi. Marosimlarning o‘zi ijtimoiy birdamlik va

⁷ Xoji Muin. To‘y va aza marosimi haqida. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1919-yil, 22-mart.

an'ana davomiyligini ta'minlasa-da, iqtisodiy jihatdan odamlarni qarzдорlik va iqtisodiy qiyinchilikka olib kelishi tilda ochiq ko'rsatilgan.

Matnda *“qo'llarida bor narsalarini 1-2 kunda barbod etadilar, qarzdor bo'larlar”* jumlası iqtisodiy tengsizlik va bosimni ifodalaydi. Bu orqali: pastki tabaqadagi oilalar ham marosimlarni *“or-nomus”* masalasi deb bilib, borini yo'qotishi, jamiyatda *“ijtimoiy bosim”*ning iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi ko'rsatiladi.

Matn diskursida muallif o'z pozitsiyasini (ijtimoiy maqomini) xalq manfaatini himoya qilish orqali bildiradi. Til vositalari — *“yuki ostida ezilib”*, *“eng ko'b zararlı”*, *“asir etib olg'on”*, *“ko'p zararlı”*, *“yomonroq”*, *“mol va jon ketsa ketsun”*, *“barbod etadilar”*, *“qarzdor bo'larlar”* kabi ifodalar — muallifning hissiy va keskin tanqidiy ohangini kuchaytiradi. Bu esa publitsistik uslubga xos xususiyat bo'lib, matnning ijtimoiy tanqidiy maqsadga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Muallifning maqsadi — an'anaviy marosimlarni tanqid qilib, xalqni iqtisodiy va ma'naviy uyg'otish.

Xulosa qilib aytganda, matn sotsiolingvistik jihatdan xalqning qadriyatlari, ijtimoiy ongdağı stereotiplari va marosimlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy rolini ochib beradi. Til vositalari orqali muallif xalqning iqtisodiy erkinligini cheklayotgan an'analarga qarshi tanqidiy pozitsiyani ifodalagan.

4. Ijtimoiy hayot va undagi qarama-qarshiliklar. Mazkur qismda XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining ijtimoiy hayotida yuz bergan ziddiyatlar, ma'naviy inqiroz va yangilanish jarayonlari tildagi ifodasi orqali sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Bu davr publitsistikasi o'zining tanqidiy yo'nalishi, ma'rifatparvarlik ruhi va ijtimoiy ongni uyg'otish maqsadi bilan ajralib turadi.

Til bu jarayonda nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi, jamiyatni isloh etuvchi qudratli vosita sifatida namoyon bo'ladi.

“Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, sil-al-iya va maxavliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yomonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, honavayron va g'arib etuvchi birdard, biz – turkistoniylarni shahri va qishloqi yoinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizga sorilg'on va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalataturgon to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman”.

Til jamiyatning ijtimoiy ongini, qadriyatlarini va tafakkur darajasini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisadir. Ushbu matn jadid davri publitsistik tafakkurining o'ziga xos namunasi bo'lib, unda til orqali ijtimoiy illatlar, madaniy ziddiyatlar va ma'naviy tanazzul yoritiladi. Matn sotsiolingvistik nuqtai nazardan jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning tildagi aksini ifodalovchi, xalq tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan publitsistik nutqdir.

Labov⁸ ta'kidlaganidek, **“til ijtimoiy strukturaning nafaqat ifodasi, balki uning faol elementi hamdir”**. Shu nuqtai nazardan muallif til orqali jamiyatni isloh qilishni maqsad qilgan. XX asr boshlarida Turkiston xalqi hayotida marosimlar, urf-odatlar va diniy an'analar ijtimoiy hayotning asosiy qismini tashkil etgan. Biroq jadid ma'rifatparvarlari bu holatni tanqid qilgan holda xalqni ma'naviy uyg'otishga, iqtisodiy va madaniy o'sishga chorlagan.

“To'y” so'zi matnda madaniy illat sifatida tasvirlanib, u “ikki qattol dushman” sifatida baholanadi. “To'y” — ilgari jamiyatni birlashtiruvchi, ijtimoiy birdamlik ramzi bo'lgan marosim, endi esa muallif nigohida iqtisodiy tanazzul va jaholat belgisi sifatida talqin etilmoqda. Matndagi “*yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimiz*” iborasi jamiyatdagi qatlamlar o'rtasidagi tafovutni ochadi. Bu til vositasida amalga oshgan sotsial stratifikatsiya hodisasidir.

⁸ Labov V. Sociolinguistic patterns. Philadelphia. 1972, p. 121..

Trudgill⁹ qayd etganidek, **“til sotsial tafovutlarni aks ettiruvchi ijtimoiy ko‘rsatkichdir”**. Muallif *“madaniy”* va *“vahshiy”* so‘zlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali xalqning tafakkur darajasi, saviyasi va turmush tarzi o‘rtasidagi farqni lingvistik shaklda ochib beradi. Bunday ifoda jamiyatdagi sinfiy tafovutlarning sotsiolingvistik aks sadosi bo‘lib, ijtimoiy o‘zlikning tildagi in‘ikosi sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Labov V. Sociolinguistic patterns. Philadelphia. 1972, p. 121..
2. Trudgill P. Sociolinguistic:An Introduction. Harmondsworth: Penguin Books. 1974, p. 32.
3. Nishonova G. “O‘zbek publitsistikasining shakllanishi hamda rivojlanishida “Oyina” jurnalining o‘rni va ahamiyati. Fil.fan.nomzodi diss.Toshkent, 2008. 13-14-betlar.
4. Xoji Muin. “Bolsheviklar va biz” maqolasi. “Xurriyat” gazetasi, 1918-yil, 9-yanvar.
5. Xoji Muin. “Yoshlar!Yurtning umidi yolg‘uz sizgadur” maqolasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1920-yil, 15-fevral.
6. Xoji Muin. “To‘y va aza marosimi haqida” maqolasi. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi, 1919-yil, 22-mart.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. "Qozoq qardoshlarimizga ochiq xat" maqolasi. “Xurriyat”gazetasi, 1918-yil, 26-yanvar.
8. M.Abdurashidxonov. “Sho‘royi islom” qarornomasi” nomli maqolasi. “Najot” gazetasi, 1917-yil,27-aprel.

⁹ Trudgill P. Sociolinguistic:An Introduction. Harmondsworth: Penguin Books. 1974, p. 32.